
MAHALLANING ICHKI YO'LLARI SHAG'ALLASHTIRILMOQDA

Aholi murojaatlari orasida ko'p uchraydigan masala – hudduddagi ichki yo'llarni shag'allashtirish hamda asfaltlashtirishdir. Ayniqsa yog'ingarchilik kunlari bu masala o'zining dolzarb ekanligi barchaga ayon. Rishton tumanida mavjud 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish, ularga qulayliklar yaratish borasidagi ishlar davom etmoqda.

Ayniqsa ko'p yillardan buyon qishda loy, yozda chang bo'lgan yo'llarni toshlash, ravon, tekis yo'llarga aylantirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, "Uyrat" mahallasidagi bir qator ko'chalarni shag'allashtirish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Bu kabi ishlar tumanning olis va chekka hududlaridagi mahalla ko'chalariga ham kirib bordi. Bundan esa fuqarolar mamnun bo'lishmoqda.

2022-12-09 08:47:14